

## NUKUS SHAHRI SHAROITIDA MAVJUD DARAXT-BUTALAR NOVDALARINING O'SISH KO'RSATKICHLARI

*<sup>1</sup>N.B.Kamalova, <sup>2</sup>S.M.Urazbaeva*

*<sup>1</sup>Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi*

*<sup>2</sup>Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** So'ngi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlarda ko'kalamzorlashtirishga oid tadbirlar ko'lami ortib bormoqda. Bunday tadbirlar natijasida shu sharoitga moslasha oladigin daraxt-buta turlarini tanlash va tavsiya etish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqoladi Nukus shahri sharoitiga introduksiya qilingin dominant turlarning novdalarining yillik o'sish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Nukus sharoiti, ko'kalamzorlashtirish, daraxt-buta, novda, o'sish, dominant turlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida ko'kalamzorlashtirish masalalarini echishda uning tabiiy va geografik sharoitlarini e'tiborga olish kerak. Chunki har bir hududning sharoitlari o'ziga xos va har xildir. Bu esa mutaxassislardan manzarali daraxt – buta turlarini biologik va ekologik xususiyatlarini bilishni talab qiladi. Hozirgi kunda ko'kalamzorlashtirish uchun ninabargli va yaproq bargli daraxt va buta turlarini etishtirishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda [4]. Ko'kalamzorlashtirish maqsadida daraxt-buta o'simliklarini to'g'ri tanlab olish uchun ularning manzarali sifatlarini bilish bilan bir qatorda ularning tashqi muhit sharoitlariga bo'lgan talabini e'tiborga olish ham juda muhimdir [2].

Daraxt va butalarning o'sishi–nafaqat organizmning hayoti davomida sintez qiladigan, balki uning atrof-muhit sharoiti ta'sirida to'playdigan kompleks ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.




Ko'kalamzorlashtirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitiga mos mahalliy va introduksiya qilingan daraxt va buta turlarini tanlash, ularni ko'paytirish va bugungi holatini o'rganish, bir-biri bilan taqqoslash, regionning iqlim va sho'r tuproq sharoitlariga chidamli turlarini aniqlab ishlab chiqarish va ko'kalamzorlashtirish tarmoqlariga tavsiyalar berish hisoblanadi. Qoraqalpog'iston sharoitida mahalliy va introduktsiyalangan manzarali daraxt va butalarni holatini o'rganish va bu ishlarning natijasida sovuqlikka, qurg'oqchilikka, iqlim va sho'r tuproq sharoitlariga chidamli daraxt turlarini tanlay olamiz [1, 3].



Daraxt va butalarda kurtaklarning o'sishi, naslning biologik xususiyatlari, kelib chiqishi va o'simliklarning atrof-muhit omillari ta'siriga bo'lgan munosabati bilan

bog'liq. Bu jarayonni bir yil davomida muntazam rivojlanish davrini tavsiflovchi anatomik va fiziologik o'zgarishlar asosida o'rganish mumkin.

Tadqiqot ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlarda ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llanilayotgan daraxt va butalarning o'sish ritmini o'rganish bo'yicha olib borildi. Tajriba maydonlari Nukus shahrining markaziy ko'chalarida, sanoat xududlarida va Nukus davlat o'rmon xo'jaligida olib borildi. O'sish xususiyati va davrini aniqlash uchun har 10 kunda turlar bo'yicha 3-5 model daraxtlarni yillik kurtaklarining o'sishi o'lchab borildi.

O'lchovlarga ko'ra, kurtaklar uzunligi ularning kuzatuv davrida o'sishining o'rtacha arifmetikasi bilan hisoblab chiqilgan. Olingan natijalar diagrammalarda keltirilgan.





### 1-rasm. 2022-2024 yillar oralig'ida daraxt va buta o'simliklar novdalarining o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichlari, sm

Jadvalda ninabargli daraxtlardan sharq biotasida yillik o'sish o'rtacha 2022 yili 17,6 sm, 2019 yili 19,3 sm va 2024 yili 19,1 sm ni tashkil qildi. Yaproq bargli daraxt turlardan Ajoyip katalpada 2022 yili 30,2 sm, 2023 yili 29,6 sm, va 2024 yili 27,3 sm o'sgani aniqlandi. Buta turlaridan jumrutsimon chakanda o'simligida 2022 yili 37,2 sm, 2023 yili 33,6 sm, 2024 yili 31,2 sm, ni tashkil qildi. Endi Qoraqalpog'iston sharoitiga moslasha olgan buta turidan biri shamshod o'simligida 2022 yili 12,6 sm, 2023 yili 13,5 sm, va 2024 yili 10,7 sm o'sishi aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Отенов Т.О. "Влияние засоленности почвы и грунтовых вод на древесные растения в условиях юга Приаралья" Материалы международной научной

- конференции “Развитие Ботанической науки в Центральной Азии и её интеграция в производство”. Ташкент, 2004. – С. 356-358.
2. Отенов Т.О. “Ботанический анализ дендрофлоры Каракалпакстана и её эколого-морфологические особенности”. “Вестник КК ОАН РУз”, № 5-6, 2004. – С. 10-14.
  3. Qayumov A., Boltaniyozov J.S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan // The American Journal of Applied sciences. - 2020. - Т. 2. - №. 09. - P. 170-174.
  4. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. - 2017. - С. 820-821.